

UDK: 636.082.454:616

MAHSULDOR SIGIRLARDA ALIMENTAR BEPUSHTLIKLARNING ETIOLOGIYASI, DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI

Eshburiev B.M.

Ilmiy rahbar, v.f.d., professor, SamVMChBU Nukus filiali

Raximov O.R.

tayanch doktorant, SamVMChBU Nukus filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18085660>

Annotatsiya: Maqolada mahsuldor sigirlarda alimentar bepushtlikning sabablari, sog'in sigirlarni oziqlantirish tipiga, biologik faol moddalar, makro- va mikroelementlar bilan ta'minlanish darajasiga va diagnostikasi hamda oldini olishda hayvonlarni oziqlantirishni yaxshilash, vitamin va minerallarga boy oziqalarni ratsionga kiritish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: bepushtlik, mikroelementlar, oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar, tuxumdonlar, gipokuproz, tokoferol, matsion, kamqonlik, jinsiy sikl, ratsion.

MAHSULDOR SIGIRLARDA ALIMENTAR BEPUSHTLIKLARNING ETIOLOGIYASI, DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI

Аннотация: В статье приведены сведения о причинах алиментарного бесплодия продуктивных коров, типе кормления дойных коров, уровне обеспеченности биологически активными веществами, макро- и микроэлементами, а также путях улучшения питания животных в целях диагностики и профилактики, включения в рацион продуктов, богатых витаминами и минеральными веществами.

Ключевые слова: бесплодие, микроэлементы, белки, углеводы, витамины и минералы, яичники, гипокупроз, токоферол, матка, анемия, половой цикл, рацион.

MAHSULDOR SIGIRLARDA ALIMENTAR BEPUSHTLIKLARNING ETIOLOGIYASI, DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI

Abstract: The article provides information on the causes of alimentary infertility in productive cows, the type of feeding of dairy cows, the level of supply of biologically active substances, macro- and microelements, and how to improve animal nutrition for diagnosis and prevention, and the inclusion of foods rich in vitamins and minerals in the diet.

Key words: infertility, microelements, proteins, carbohydrates, vitamins and minerals, ovaries, hypocuprosis, tocopherol, mation, anemia, sexual cycle, diet.

KIRISH

Respublikamiz Prezidentining qator farmonlari va qarorlari asosida Respublikamizda chorvachilikni jadal rivojlantirish, choravchilik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va sifatini yaxshilashga erishish maqsadida chetdan yuqori mahsuldor hayvonlarni keltirilishiga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu mahsuldor sigirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularda akusher-ginekologik kasalliklarning ko'p qayd etilishi hisoblanib, bu kasalliklar orasida Maxsuldor sigirlarda alimentar bepushtliklar yani hayvonlarni noto'g'ri oziqlantirish yoki ulari yetarlicha oziqlantirmaslik keragidan ortiqcha oziqlantirish yoki rasionda jinsiy tizim a'zolarining faoliyatiga ta'sir etuvchi muhim komponentlarning yetarlicha bo'lmasligi natijasida kelib chiqadi.

Maxsuldor sigirlardan rejadagi bolani olinmaslik, sigirlarning sut mahsuldorligining kamayishi, parvarishlash va oziqlantirish uchun xarajatlarni qoplanmasligi, qisir hayvonlarni bir

necha marta urg‘lantirish va ularni davolash uchun xarajatlar xalq xo‘jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Ko‘pincha zotdor qisir sigirlarni barvaqt podadan chiqarishga to‘g‘ri keladi.

ASOSIY QISM

B.M. Eshburiev (2019) ma‘lumotlariga ko‘ra alimantar bepustlik (Lotincha alimentum - oziq-ovqat) hayvonni noto‘g‘ri oziqlantirish tufayli kelib chiqadi. Hayvonlarni noto‘g‘ri oziqlantirish, yetarlicha oziqlantirmaslik (och qolishi), keragidan ortiqcha oziqlantirish (semirib ketishi) yoki rasionda jinsiy tizim a‘zolarining faoliyatiga ta‘sir etuvchi muhim komponentlarning (oqsillar, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar va b.) etarlicha bo‘lmasligi bepustlikka olib kelishi mumkin. Masalan, A gipovitaminozda bachadon shilliq pardasi epiteliysida o‘zgarishlar kuzatiladi, B gipovitaminozda jinsiy bezlar degenarativ o‘zgarishlarga uchraydi, akobaltoz paytida ko‘payish funksiyasi izdan chiqadi. [1]

B.M.Eshburiev (2019) ma‘lumotlariga ko‘ra, oziqlantirishning to‘laqimmatli bo‘lmasligi oqibatidagi bepustlikning asosiy sababi hayvonlar rasionida oqsillar, vitaminlar, makro- va mikroelementlarning etishmasligi yoki ortiqchaligi, sifasiz va buzilgan oziqalar berilishi hisoblanadi. Rasionda uning ayrim komponentlarining (vitaminlar, oqsillar, uglevodlar, kalsiy, fosfor, marganes, yod, temir, kobalt va b.) etishmasligi yoki ortiqcha bo‘lishi hayvonning semizligi o‘rtacha yoki yuqori bo‘lganda ham bepustliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, rasionda uglevodlar etishmaganda qondagi ishqoriy zahira va qandning miqdori kamayib, keton tanachalari miqdori ortadi, alimantar toksemiya va jinsiy funksiyalarning susayishi kuzatiladi, rasionda yod etishmaganda urg‘ochi hayvonlarda jinsiy etilishning kechikishi, jinsiy siklni noto‘liq (ko‘pincha anovulyator) bo‘lishi, follikulyar kista hosil bo‘lishi va bepustlik kuzatilishi, bola tashlash, yo‘ldoshni ushlanib qolishi va b., buqalarda impotensiya va sperma sifatining pasayishi xarakterli bo‘ladi [2].

A.V.Timakov (2018) ma‘lumotlariga ko‘ra mahsuldor sigirlarda alimantar bepustliklar. Ular rasionida yod, mis, rux va temir mikroelementlari hamda A, D, E vitaminlari yetishmasligi oqibatida rivojlanadi. Ularda jinsiy sikl me‘yorida kechmasligi kuyikishning buzilishi va urug‘lanishning samarasi past bo‘lishiga olib keladi.

K..N Katend (1991) va V.V Xramsov va boshqalarning (2007) ma‘lumotlariga ko‘ra sigirlarda alimantar bepustlik bu eng ko‘p uchraydigan bepustlik turi bo‘lib, bu rasionda protein, uglevodlar, yog‘lar, makro- va mikroelementlar almashinuvi buzilishlari va rasion strukturasi noto‘g‘ri bo‘lishidan kelib chiqadi.

N.S.Parashenko (2008) takidlashicha sigirlarda alimantar bepustlik alimantar gipokobaltoz oqibatida kelib chiqadi degan xulosaga kelishgan. Bu mikroelementlarning sigirlar qonidagi miqdori ham fiziologik meyorlar chegarasidan past ekanligi bilan harakterlandi. Tekshirishlar natijasiga ko‘ra rux qon tarkibida 36,11%, mis - 55,4%, marganes -69,96%, kobalt - 7,06% ni tashkil etgan. Ushbu mikroelementlardan kobalt miqdori eng kam bo‘lganligi takidlangan.

N.S. Belozerseva (2019) ma‘lumotlariga ko‘ra Hayvonlarning pushtdorligiga A vitamini etishmovchiligining ta‘siri odatda rasionda oqsil ortiqchaligi va jinsiy bezlarning degenerativ o‘zgarishlari va jinsiy siklning buzilishi bilan birgalikda kechadi. Kalsiferol (D vitamini) mineral almashinuvga ta‘sir etishi bilan qondagi kalsiy va fosfor miqdorlarining me‘yorlar chegarasida bo‘lishini ta‘minlaydi. Uning etishmovchiligida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va jinsiy funksiyalar buziladi (tuxumdonlar atrofiyasi va sklerozi). E vitamini etishmaganda bo‘g‘ozlikning me‘yorida kechishi izdan chiqadi.[4]

Protein preparatlarini (qon zardobi, aminopeptid-2, metall yod oqsili xelat birikmalari va boshqalar) parenteral yuborish yetarli darajada oziqlantirish fonida hayvonlarning reproduktiv

funktsiyasini va qondagi oqsil darajasini normallashtiradi. Odatda, o'tlash, mashq qilish, quyoshning ta'sir qilishi va eng muhimi, vitamiga boy oziqani ratsionga kiritish tug'ilishning tez tiklanishiga yordam beradi. Biroq, bir qator hollarda, bahor va qishki kam ovqatlanishdan so'ng, hayvonlarning yaxshi oziqlanishiga qaramay, jinsiy sikl faqat 4-6 oydan keyin tiklanadi. [4]

A.V.Makarova (2009) tekshirishlarida ham sigirlarda bepshtliklar immunitetning pasayishi, qon zardobidagi lizosim va bakterisidlik aktivligining pasayishi, sog'lom hayvonlardagiga nisbatan albuminlarning 25,9%, globulinlar - 53,0%, glyukoza - 30,3%, xolesterin - 12,6%, karotin - 44,9%, vitamina A - 32,6% va vitamina E 33,3% ga kamayishi, AlAT va AsAT fermentlari faolligining ortishi mos ravishda 49,0% va 59,4% tashkil etgan. Olimlar alimantar bepshtliklarda hayvonlar organizmida oqsil-uglevod almashinuvining buzilishi, vitaminlar va karotin miqdorlarining kamayishi bilan kechishini tajribalarda isbotlagan.

Ratsionga mikroelementlarning muvozanatli kiritilishi sigirlar va g'unajinlarning reproduktiv qobiliyatiga, birinchi navbatda unumdorlikka, embrion va postembrional davrda homilaning rivojlanishiga, bachadon involyutsiyasi jarayonlariga, shuningdek metabolizmni va optimal ishlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. fermentlar va gormonlar (Defrain J.M 2009).[5]

Q.N.Norboev., S.B.Eshburiev (2017) ma'lumotlariga ko'ra, mahsuldor sigirlarda vitamin-mineral moddalar almashinuvini buzilishi kasalliklarining oldini olish uchun tarkibi: 10 % shrot, 15% kungaboqar shroti, 11% paxta shroti, 30% bug'doy doni 15% makka doni, 1,2% monokalsiyfosfat, 1% osh tuzi va 0,2% vitaminli mineralli premikslardan iborat bo'lgan granula holatidagi boyitilgan omixta em sigirlarni tug'ishigacha 45 kun, tuqqandan keyin 45 davomida berilishi ularda moddalar almavuvini va klinik-gematologik ko'rsatkichlarni me'yorlashtiradi, katta korin suyuqligida infuzoriyalar sonining 52,8 ming/ml ga ko'payishini, sut mahsuldorligining 3,1 l ga oshishini, servis davrining 15-20 kunga qisqarishini ta'minlaydi. [2]

Muallifning ma'lumotlariga ko'ra sigirlarda alimantar bepshtliklarni oldini olish uchun mis, kobalt, marganes va rux, yo'd mikroelementlar tuzlarining sigirlar rasioniga qo'shib berish ularda otalanish indeksining oshishiga, jinsiy organlar faoliyatini yaxshilanishiga, qondagi gemoglobin, umumiy kalsiy, anorganik fosfor, karotin va ishqoriy fosfotaza faolligini meyorlashtirishga olib kelganligini guvohi bo'lgan N.S.Parashenko. (2008).

Olimlar tomonidan alimantar bepshtliklarni oldini olish uchun hayvonlarni tug'ishiga 2 oy qolgandan boshlab, haftasiga bir marta mushak ichiga 5 ml dozasi tetravit kiritishni va ularni to'g'ri oziqlantirish, rasionda qand-protein nisbatini mutanosiblashtirish va zarur sanitariya-gigiena sharoitlarini yaratish bilan birga, fermer xo'jaliklarida 5 soat davomida 5 km gacha masofa yayratishni tashkil etish tavsiya etiladi. I.Suslova (2013).

Rasionda vitaminlar yetishmaganda ularning preparatlari rasionga kiritiladi. Vitaminlarning preparatlari sigirlarga har 3-5 kunda bir marta, jami 5 marta quyidagi miqdorda muskul orasiga ineksiya qilinadi: A vitamini -200 ming XB, D vitamini -5 ming XB, E vitamini - 10 mg. Ularning kompleks preparatlari (trivit, tetravit, tetramag) bir boshga 5-10 ml qo'llanishi ham mumkin (Sh.B.Ata-Kurbanov, B.M.Eshburiev (2009).

XULOSA

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, sigirlarda alimantar-iqlimiy xususiyatli bepshtliklarning sabablari sog'in sigirlarni oziqlantirish tipiga, biologik faol moddalar, makro-va mikroelementlar bilan ta'minlanish darajasi, ularni saqlash sharoiti, bo'g'oz hayvonlar uchun muntazam yayratishning yetishmasligi va noqulay iqlim sharoitlari hisoblanadi. Bepshtliklarni oldini olishda hayvonlarni oziqlantirishni yaxshilash, vitamin va minerallarga boy oziqalarni ratsionga kiritish (beda, undirilgan bug'doy maysasi, sulii, arpa, qizil sabzi, qovoq va b.),

shuningdek, vitamin preparatlari (trivit, tetravit va multivit+mineral b.). Ratsionda protein va uglevodlar, makro- va mikroelementlar muvozanatining me'yorlar darajasida bo'lishini ta'minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эшбуриев Б.М. Ветеринария акушерлиги. Дарслик. Тошкент, 2018.
2. Эшбуриев Б.М. Сигирларда микроэлементларнинг диагностикаси, даволаш ва олдини олиш бўйича тавсиялар. «Н.Доба» ХТ. Самарқанд, 2009. 24. б.
3. Волосков, П.А. Основы борьбы с бесплодием крупного рогатого скота / П.А. Волосков. – М., 1960. – 260 с.
4. Зверева, Г. В. Современные проблемы бесплодия крупного рогатого скота / Г. В. Зверева // Вестник с.-х. наук. - 1982. - № 4. - С. 12- 17.
5. Қулдошев О.Ў. Сигирлар бепуштлиги, эндометритларни даволаш ва олдини олиш усуллари тақомиллаштириш. Вет.фан. доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. Самарқанд, 2022.
6. Макаров А.В. Ветеринарно-санитарная технологическая оценка молока и морфо-биохимические показатели крови коров при хронических формах эндометрита. Автореферат. // Дис. на соискание ученой степени кандидат биологических наук. Красноярск -2010 г. 49 -С.
7. Руководство по акушерству, гинекологии и биотехнике размножения животных / Е. В. Ильинский, М. В. Назаров, А. Н. Трошин, В. Н. Шевкопляс. - Краснодар, 2002. - 581 с. Ильинский, Е. В. Профилактика бесплодия коров в условиях интенсификации молочного скотоводства / Е. В. Ильинский. - Краснодар : Кн. изд- во, 1983. - 176 с.
8. Федотов, С.В. Коррекция лечебно-профилактических мероприятий при субинволюции матки и повышения плодовитости у мясного скота // С.В. Федотов, В.С. Авдеенко, А.Т. Жангалиева. - Вестник Алтайского государственного аграрного университета. – 2016. – №11 – С.130-135.
9. Шкуратова И.А. Влияние адаптированной витаминно-минеральной добавки на молочную продуктивность и воспроизводительную функцию коров // Ветеринария Кубани. - 2009. - №6. - С. 56-59